IQTIDORLI O'QUVCHILARNING UZLUKSIZ TA'LIM KLASTERIDA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Xakimova Shahnoza Abdubannob qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika fakulteti Psixologiya mutaxassisligi
24/1- guruh magistranti
xakimovashahnoza4@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20525370

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarning uzluksiz ta'lim klasterida rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim klasterlari iqtidorli o'quvchilarga individual ta'lim yo'nalishlarini taklif etib, ularning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash usullari, mentorlik tizimi va innovatsion texnologiyalarning o'rni o'rganiladi. Shuningdek, ta'lim klasterlari doirasida maktab, kollej, oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlar hamkorligining samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: iqtidor, uzluksiz ta'lim, ta'lim klasteri, pedagogik innovatsiyalar, individual yondashuv, mentorlik tizimi, psixologik qo'llab-quvvatlash.

KIRISH

Jahon miqyosida o'quvchilarning iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va akademik o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish, o'quvchilarda mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratish, ijodiy salohiyatni rivojlantirishning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish, o'quvchilarning iqtidorini tashxis etish va ma'naviy-ruhiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishi sifatida iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ularning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ–4306-son Qarori misol bo'la oladi. Jumladan, "Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud" [1].

Respublikamiz ta'lim tizimida ko'plab islohotlar kadrlar tayyorlash sohasida ta'lim turlari o'rtasida aloqa va uzviylik ta'minlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o'z navbatida ta'lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muammo bo'yicha xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, klaster yondashuvi asosida ta'limni rivojlantirish 1990 yillarda M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan

klaster nazariyasi va rivojlanishining amaliy natijasi sifatida Yevropada boshlangan [1]. “Claster Initiative GreenBook” monografiyasining muallifi tomonidan o‘tkazilgan dunyoning turli mamlakatlaridagi ikki yuzdan ortiq klasterlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, innovatsion faoliyat va texnologiyalarni tarqatish klasterlar faoliyatining eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Uzluksiz pedagogik ta’lim o‘quv-ilmiy innovatsion klasterining konseptual va nazariy-metodologik yondashuvi taniqli belarus olimlari A.I.Juk va A.V.Torxovalar tomonidan ishlab chiqilgan [6]. Sifat, zamonaviylik, ochiqlik, uzviylik va uzluksizlik, uzluksiz pedagogik ta’lim o‘quv-ilmiy innovatsion klasterining o‘ziga xos afzal jihatlarini tashkil qiladi.

Ta’lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g‘oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko‘rsatmalari bo‘yicha bir qator o‘zbek olimlari, jumladan, U.N.Hodjamqulov, S.A.Toshtemirova, A.Boymurodov , Sh.I.Botirova, D.Qarshieva, G.N.Sharipova, N.M.Koshanova va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida pedagogik ta’lim klasteri asosida mintaqaviy ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, sifat samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha innovatsion g‘oyalar joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va ularning amaliy tatbig‘i borasida samarali tajriba tahlillari bayon qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo’lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. “Iqtidor” arabcha “qodir bo‘lmoq”, “qila olmoq”, shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha[2], shuningdek, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat’iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli o‘quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlashdan iboratdir.

Aynan bu jarayon ta’lim tizimini klasterlashtirishni talab qiladi. Shu o‘rinda bugungi kunga kelib ta’limga nisbatan qo‘llanilib kelinayotgan klaster terminining mohiyatiga to‘htalib o‘tsak, klaster bu - o‘zaro bog‘langan tashkilotlar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, tegishli tarmoqlardagi firmalar hamda ularning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotlarning geografiy belgi bo‘yicha birlashtirilgan guruhidir.[4]

Uzluksiz ta’lim klasteri – bu ta’limning turli bosqichlari (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish) o‘rtasida integratsiyalashgan tizim bo‘lib, o‘quvchilar va talabalarning bilim olish jarayonini uzviy va tizimli tarzda davom ettirishini ta’minlaydi.[3]

Bu klasterlar quyidagi asosiy maqsadlarni bajaradi:

- Ta’limning turli bosqichlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash;
- Iqtidorli o‘quvchilarni erta aniqlash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- Innovatsion ta’lim metodlarini joriy etish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish.

Uzluksiz ta’lim klasterlari o‘quvchilarning bosqichma-bosqich o‘sishini ta’minlab, ularning kasbiy va ilmiy-ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish zarur. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, shaxsiylashtirilgan yondashuv o‘quvchilarni motivatsiya qiladi va ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda ularni tajribali mentorlar va tutorlar bilan ta’minlash natijadorlikni oshiradi. Mentoring dasturlari orqali iqtidorli o‘quvchilar o‘z

qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Ta’lim klasterlari doirasida oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va biznes sektor bilan hamkorlik qilish iqtidorli o‘quvchilarning amaliy tajriba orttirishiga yordam beradi.

Natijalar tahliliga ko‘ra, klaster tizimi doirasida iqtidorli o‘quvchilarning qobiliyatlarini real hayot sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ortadi. insonda doimiy yaxshi tomonga o‘zgarish istagi, hayotda yuqori natijaga erishish uchun harakat qilish qobiliyati, insondagi mas’uliyat, mavjud tizimga moslashuvchanlik, o‘z pozitsiyasini aql bilan boshqarish va tashqi ta’sirlardan himoya qilish qobiliyati, o‘quvchining shaxs sifatida o‘zini-o‘zi anglash qobiliyati kabi xususiyatlar ta’lim sifatini ta’minlashda muhim sanaladi. Ta’lim sifatini ta’minlashga katta ahamiyat beradigan xususiyatlardan hisoblangan ta’limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirishga ham katta e’tibor berish zarur. Bugungi kunda o‘qituvchi o‘quvchini doimiy siquvda, majburiyatda ushlab turish, talablarni kuchaytirish orqali ta’lim sifatini oshirishi mumkin mazmunidagi harakatlar ta’limni zamonaviylashtirishga katta to‘siq bo‘lib kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, iqtidorli o‘quvchilarning uzluksiz ta’lim klasterida rivojlanishi samarali ta’lim metodlari, innovatsion texnologiyalar va individual yondashuv asosida tashkil etilganda yuqori natijalarga erishiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun integratsiyalashgan ta’lim tizimi, shaxsiylashtirilgan dasturlar, psixologik va pedagogik yordam muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida uzluksiz ta’lim klasterlarida iqtidorli o‘quvchilar uchun maxsus dasturlarni kengaytirish, pedagog va psixologlar malakasini oshirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadbirlar iqtidorli yoshlarning salohiyatini to‘liq ochib berishga, ularning ilmiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirishga va mamlakat ta’lim tizimining innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Eshmuminovich, T. A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. Bphilosophy, 20.
2. Tursoatov, A. E. (2023). Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari. Mugallim, 1(1), 55-59.
3. Tursaotov, A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. Science and innovation, 2(B6), 20-26.
4. Турсоатов, А. Э. (2020). Ўқувчи-ёшларни синфдан ташқарида ўтказиладиган машғулотларнинг самарадорлигини ошириш йўллари. TDPU xabarlari, 1(9), 121-123.
5. Bobomurod Khujomov, A. T. (2019). Professional Competencies As Integral Qualities Of A Specialist’s Personality. European Journaal of Research and Relfection in Educational Sciences, 39-43.
6. Nizami, X. B. X. (2023). Didactic Principles of Development of Physical Qualities in School Students. PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT, 3(5), 36- 38.
7. Xaytmurodovich, K. B. (2022). Foundation of Modern Struggle. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(12), 14-15.